

## IQTISODIY ZONALARDA MAHALLIYLASHTIRISH JARAYONLARINING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI VA TASHKILIY-IQTISODIY XUSUSIYATLARI

**Murodov Nuriddin Nemat o'g'li**

**Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti tayanch doktoranti**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20424817>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada iqtisodiy zonalarda mahalliyashtirish jarayonlarining amaldagi rivojlanish yo'nalishlari hamda ularning tashkiliy-iqtisodiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Unda mahalliyashtirishning import o'rnini bosish doirasidan chiqib, ichki qo'shilgan qiymatni oshirish, sanoat kooperatsiyasini kengaytirish, hududiy ixtisoslashuvni chuqurlashtirish va ishlab chiqarish zanjirlarini shakllantirish bilan bog'liq jihatlari yoritiladi. Shuningdek, iqtisodiy zonalarining ko'p funktsiyali institutsional maydon sifatida shakllanishi, rezident korxonalar faoliyati, infratuzilma va boshqaruv mexanizmlarining o'zaro bog'liqligi ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** iqtisodiy zona, mahalliyashtirish, tashkiliy-iqtisodiy xususiyatlar, sanoat kooperatsiyasi, ishlab chiqarish zanjiri, hududiy ixtisoslashuv, ichki qo'shilgan qiymat, rezident korxonalar, institutsional boshqaruv.

**Аннотация.** В данной статье анализируются современные направления развития процессов локализации в экономических зонах, а также их организационно-экономические особенности. В статье раскрываются аспекты локализации, связанные с выходом за рамки простого импортозамещения, повышением внутренней добавленной стоимости, расширением промышленной кооперации, углублением территориальной специализации и формированием производственных цепочек. Также научно обосновывается взаимосвязь формирования экономических зон как многофункционального институционального пространства, деятельности предприятий-резидентов, инфраструктуры и механизмов управления.

**Ключевые слова:** экономическая зона, локализация, организационно-экономические особенности, промышленная кооперация, производственная цепочка, территориальная специализация, внутренняя добавленная стоимость, предприятия-резиденты, институциональное управление.

**Abstract.** This article analyzes the current development trends of localization processes in economic zones and their organizational and economic features. It highlights the aspects of localization related to moving beyond import substitution, increasing domestic added value, expanding industrial cooperation, deepening territorial specialization, and forming production chains. The article also scientifically substantiates the interrelation between the formation of economic zones as multifunctional institutional spaces, the activities of resident enterprises, infrastructure, and management mechanisms.

**Keywords:** economic zone, localization, organizational and economic features, industrial cooperation, production chain, territorial specialization, domestic added value, resident enterprises, institutional management.

Iqtisodiy zonalarda mahalliyashtirish jarayonlarining rivojlanishi bugungi kunda nafaqat alohida korxonalar faoliyati, balki hududiy ishlab chiqarish tizimi, sanoat kooperatsiyasi, investitsiya loyihalarini joylashtirish va ichki qo'shilgan qiymatni oshirish bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'lmoqda. Shu bois iqtisodiy zonalarining samaradorligini baholashda ularning faqat son jihatdan ko'payishi yoki rezident korxonalar faoliyati bilan cheklanib qolmasdan, mazkur hududlarda shakllanayotgan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar, ishlab chiqarish zanjirlari, infratuzilma imkoniyatlari va boshqaruv mexanizmlarining o'zaro uyg'unligini ham tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Alohida ta'kidlash lozimki, iqtisodiy zonalarda amaldagi holatning asosiy tashkiliy-iqtisodiy xususiyatlari, avvalo, mazkur hududlarning ko'p funksiyali institutsional maydon sifatida shakllanganida namoyon bo'ladi. Bunday hududlarda ishlab chiqarish, investitsiya, logistika, eksport va ichki kooperatsiya jarayonlari yagona hududiy boshqaruv makonida tutashadi. Shu sabab iqtisodiy zona oddiy sanoat joylashuvi nuqtasi sifatida emas, balki ishlab chiqarish omillari, boshqaruv institutlari va bozor aloqalari bir-biriga bog'langan iqtisodiy tizim sifatida ko'rinadi. Sanoat parklarini boshqarish bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sanoatni rivojlantirish tashkiloti ishlab chiqqan xalqaro qo'llanmada ham bunday hududlarning samaradorligi ularning boshqaruv modeli, xizmat ko'rsatish sifati, rezidentlar tarkibi va ichki iqtisodiy aloqalarining uyg'unligiga bog'liqligi ko'rsatiladi [1].

Amaldagi holatning muhim xususiyatlaridan yana biri iqtisodiy zonalar tarkibida hududiy kengayish bilan birga institutsional murakkablashuvning ham kuzatilayotganidadir. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2026-yil 1-yanvar holatida mamlakatda 31 ta maxsus iqtisodiy zona faoliyat yuritgan va ularda 1 127 ta ishtirokchi korxonalar ro'yxatga olingan [2]. Bu ko'rsatkich iqtisodiy zonalar ko'plab xo'jalik yurituvchi subyektlarni birlashtirgan hududiy ishlab chiqarish platformasiga aylanganini bildiradi. Shu bilan birga, ishtirokchilar sonining ortishi boshqaruvni ham murakkablashtiradi, chunki bunday sharoitda rezidentlarni joylashtirish, infratuzilma bilan ta'minlash, kooperatsion aloqalarni yo'lga qo'yish va hudud ichidagi iqtisodiy muvozanatni saqlash masalalari yanada dolzarb tus oladi.

Mazkur amaldagi holatning navbatdagi tashkiliy-iqtisodiy xususiyati ixtisoslashuv va funksional differensiallashuvning kuchayib borayotganidir. Ya'ni iqtisodiy zonalar bir xil turdagi hudud sifatida emas, balki turli tarmoqlar va ishlab chiqarish vazifalariga yo'naltirilgan maydonlar sifatida faoliyat yuritmoqda. O'zbekiston investitsiya muhiti bo'yicha 2025-yilgi rasmiy sharhda 2025-yil aprel holatiga ko'ra 28 ta maxsus iqtisodiy zona, 389 ta kichik sanoat zonasi, 23 ta texnopark va 355 ta klaster mavjud ekani qayd etilgan [3,19]. Bu raqamlar hududiy ishlab chiqarish infratuzilmasining turli shakllarda rivojlanayotganini ko'rsatadi. Natijada iqtisodiy zonalarining tashkiliy-iqtisodiy tabiatida ko'p qavatlilik vujudga keladi. Xususan, ayrim hududlar eksport va investitsiyaga, ayrimlari texnologik o'zlashtirishga, boshqalari ichki ishlab chiqarish kooperatsiyasiga yaqinroq funksional yuklama bilan ishlaydi.

Amaldagi holatning yana bir xarakterli jihati shundaki, iqtisodiy zonalarining iqtisodiy samarasi ko'p hollarda faqat to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqarish hajmi bilan belgilanmaydi. Ularning ichki va tashqi aloqalari, xususan mahalliy ta'minot zanjirlari bilan bog'lanish darajasi ham muhim o'rin tutadi. Islom hamkorlik tashkilotining Iqtisodiy va tijoriy hamkorlik bo'yicha doimiy qo'mitasi tadqiqotida maxsus iqtisodiy zonalar ichida faoliyat yuritayotgan korxonalar ichki iqtisodiyotdan xomashyo va butlovchi resurslar xarid qilgan sari bilvosita bandlik, mahalliy biznes faolligi va hududiy iqtisodiy jonlanish kuchayishi ta'kidlangan [4,14]. Bu fikr iqtisodiy zonalarda amaldagi holatning tashkiliy-iqtisodiy xususiyatini tushuntirishda muhimdir. Chunki, zona samaradorligi

ko'p jihatdan uning ichki iqtisodiyotdan ajralgan yoki unga singishgan holda ishlashiga bog'liq bo'ladi.

Iqtisodiy zonalarning mavjud holatini tavsiflovchi yana bir muhim xususiyat ishlab chiqarish zanjirlari va qiymat yaratish bosqichlarining hududiy boshqaruv bilan tobora yaqinlashib borayotganidir. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sanoatni rivojlantirish tashkilotining global qiymat zanjirlari bo'yicha hisobotida sanoat rivojida muvaffaqiyat ko'p jihatdan firmalar o'rtasidagi aloqalar, texnologik o'zlashtirish va tarmoq ichidagi boshqaruv sifati bilan bog'liqligi qayd etiladi [5,16]. Bu yondashuv iqtisodiy zonalar amaliyotida ham seziladi. Agar hudud ichida rezident korxonalar, servis subyektlari va ta'minotchilar o'rtasida nisbatan barqaror aloqalar shakllansa, zona ichki qo'shilgan qiymat yaratish salohiyati yuqoriroq bo'ladi. Demak, amaldagi holatning tashkiliy-iqtisodiy xususiyati faqat korxonalar soni yoki investitsiya hajmida emas, balki hudud ichidagi iqtisodiy aloqalarning zichligida ham namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, iqtisodiy zonalarda amaldagi holatning muhim iqtisodiy belgilaridan biri boshqaruv, infratuzilma va rezident tarkibi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikdir. Maxsus iqtisodiy zonalar bo'yicha 2019-yilgi Jahon investitsiya hisobotida zonalarning samaradorligi strategik yo'nalish, boshqaruv-regulyativ tizim va investorlar uchun yaratilgan amaliy sharoit uyg'unligiga tayangani ko'rsatilgan. Bu esa O'zbekiston tajribasini tushunishda ham muhim hisoblanadi. Chunki hududda soliq yoki bojxona imtiyozlari mavjudligi o'zi bilangina yetarli natija bermaydi, bunda ishlab chiqarish jarayonining barqarorligi ko'p hollarda kommunikatsiya tarmoqlari, logistika, ma'muriy xizmatlar va hududiy boshqaruv intizomining qay darajada uyg'unlashganiga bog'liq bo'ladi.

Demak, iqtisodiy zonalarda amaldagi holatning asosiy tashkiliy-iqtisodiy xususiyatlari ko'p funksiyali institutsional tuzilmaning shakllanishi, hududiy ishlab chiqarish platformalarining kengayishi, ixtisoslashuv va differensiallashuvning kuchayishi, mahalliy iqtisodiyot bilan aloqalarning muhimlashuvi, qiymat zanjiri elementlarining hudud ichida jamlanishi hamda boshqaruv va infratuzilma uyg'unligining hal qiluvchi omilga aylanishida namoyon bo'lmoqda.

Umuman olganda, iqtisodiy zonalarda mahalliyashtirish va korporatsion jarayonlarni boshqarishning amaldagi holati ko'p bosqichli, institutsional jihatdan murakkab hamda funksional jihatdan o'zaro bog'langan tizim sifatida shakllanmoqda. Iqtisodiy zonalar bugungi kunda ishlab chiqarish ixtisoslashuvi, ta'minot zanjirlari, hududiy kooperatsiya, korporativ boshqaruv va ichki qo'shilgan qiymat shakllanishi tutashadigan iqtisodiy makon vazifasini bajarmoqda. O'zbekiston statistik va institutsional manbalarida maxsus iqtisodiy zonalar tarmog'ining kengayib borayotgani, rezident korxonalar sonining ortgani hamda hududiy ishlab chiqarish platformalari ko'payayotgani qayd etilishi ushbu tizimning amaliy ko'lamini tasdiqlaydi. Bugungi kunda mamlakatimizda maxsus iqtisodiy zonalar faoliyati markaziy davlat boshqaruvi, hududiy muvofiqashtirish, zona direksiyalari va korxonalar darajasidagi boshqaruv mexanizmlarining birgalikdagi harakati asosida shakllanmoqda. Shu sababdan ham mahalliyashtirish jarayoni hududiy siyosat, investitsiya muhitini tartibga solish va korporativ boshqaruv amaliyoti bilan uzviy bog'langan holda kechmoqda.

Amaldagi rivojlanish yo'nalishlari shuni ko'rsatadiki, mahalliyashtirish iqtisodiy zonalarda oddiy import o'rnini bosish vazifasi doirasidan chiqib, ichki qo'shilgan qiymatni oshirish, tarmoq ixtisoslashuvini chuqurlashtirish va korxonalararo kooperatsiyani kengaytirishga qaratilgan amaliy yo'nalishga aylanmoqda. Bu holat hududiy ixtisoslashuvning kuchayishi, ishlab chiqarish zanjirlarining bosqichma-bosqich shakllanishi va investitsiya loyihalarini tanlashda funksional yondashuvning tobora ustuvor ahamiyat kasb etayotganida yaqqol ko'rinadi. Xalqaro tajriba ham

maxsus iqtisodiy zonalarining haqiqiy iqtisodiy samara berishi ularning milliy iqtisodiyot bilan qay darajada bog'langani, ichki biznes aloqalari va ishlab chiqarish bo'g'inlarini shakllantirish salohiyatiga bevosita bog'liqligini tasdiqlaydi. Shu ma'noda iqtisodiy zonalar mahalliyashtirishni alohida korxonada doirasidagi tor jarayondan chiqarib, uni hududiy va tarmoqlararo iqtisodiy tizim darajasiga olib chiqmoqda.

Yuqorida berilgan tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, korporatsion boshqaruv iqtisodiy zonalarda mahalliyashtirishdan ajralgan mustaqil ichki boshqaruv sohasi bo'lib qolmayotganini ham ko'rsatadi. Aksincha, xarid siyosati, ichki audit, kuzatuv mexanizmlari, axborot ochiqligi, resurslar taqsimoti va ta'minot zanjirini boshqarish darajasi mahalliyashtirishning real natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois korporativ boshqaruv sifati qanchalik yuqori bo'lsa, mahalliy yetkazib beruvchilar bilan barqaror aloqalarni shakllantirish, xarajatlarni nazorat qilish, ichki resurslardan samarali foydalanish va investitsiyaning ishlab chiqarish natijasini kuchaytirish imkoniyati ham shunchalik keng bo'ladi. Demak, iqtisodiy zonalarda korporatsion boshqaruv amaliyoti nafaqat ichki korxonalar tartibini ta'minlovchi vosita, balki mahalliyashtirish jarayonining barqarorligi va natijadorligini belgilovchi muhim funksional omil sifatida maydonga chiqmoqda.

Mazkur tahlillar iqtisodiy zonalarda mahalliyashtirish va korporatsion jarayonlarni boshqarishning amaldagi holati institutsional asosga ega, hududiy va tarmoq jihatdan kengayib borayotgan, biroq ichki sifat ko'rsatkichlari bo'yicha bir xil darajada shakllanmagan tizim ekanini ko'rsatadi. Ushbu holat mahalliyashtirishning tashkiliy asoslari, rivojlanish yo'nalishlari, korporatsion boshqaruv bilan o'zaro bog'liqligi hamda iqtisodiy xususiyatlarini yaxlit holda anglash uchun zarur ilmiy asos yaratadi. Shu bilan birga, u keyingi bosqichda ushbu jarayonlarni miqdoriy ko'rsatkichlar, amaliy natijalar va samaradorlik mezonlari asosida yanada chuqurroq tahlil qilish zaruratini ham mantiqan asoslaydi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sanoatni rivojlantirish tashkiloti. Sanoat parklarini tashkil etish bo'yicha xalqaro qo'llanma. 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining "O'zbekiston Respublikasida maxsus iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonolari, texnoparklar va klasterlar faoliyati" nomli nashri. 13.02.2026.
3. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining "Katta imkoniyatlarga ega yirik mamlakat: amaldagi islohotlar" nomli nashri. 2025, 19-bet.
4. Islom hamkorlik tashkilotining Iqtisodiy va tijoriy hamkorlik bo'yicha doimiy qo'mitasining "Islom hamkorlik tashkiloti mintaqasida maxsus iqtisodiy zonalar" nomli nashri. 2017, 14-bet.
5. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sanoatni rivojlantirish tashkilotining "Global qiymat zanjirlari va rivojlanish: inklyuziv va barqaror sanoat rivojlanishini ta'minlash yo'lida UNIDO ko'magi" nomli nashri. 2015, 16-bet.